REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA TUXUMDON O‘SMALARINING KLINIK-MORFOLOGIK VA EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Zavqibekova T.K., Boltayeva J.O.
Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Buxoro filiali,
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti

Dolzarbligi. Tuxumdon o‘smalari ayollar reproduktiv tizimi neoplaziyalari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallab, zamonaviy ginekologiya va onkoginekologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Kasallikning klinik kechishidagi kam simptomlilik, erta bosqichlarda aniqlanish murakkabligi hamda reproduktiv funksiyaga salbiy ta’siri ushbu patologiyaning ilmiy-amaliy ahamiyatini oshiradi. Ayniqsa, reproduktiv yoshdagi ayollarda uchrashi organ saqlovchi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot maqsadi. Reproduktiv yoshdagi ayollarda tuxumdon o‘smalarining klinik-morfologik xususiyatlarini, gistologik variantlari va yoshga oid tarqalishini o‘rganish hamda diagnostik ahamiyatini baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqot retrospektiv klinik-statistik tahlil asosida olib borildi. Tadqiqotga ginekologik va onkoginekologik bo‘limlarda davolangan 620 nafar bemorning tibbiy hujjatlari kiritildi. Barcha bemorlarda anamnestik ma’lumotlar, klinik simptomatika, ultratovush tekshiruvi, laborator va gistomorfologik natijalar kompleks baholandi. Statistik tahlil variatsion statistika usullari yordamida amalga oshirildi. Miqdoriy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymati (M±m), foiz ko‘rsatkichlari va korrelyatsion bog‘liqliklar aniqlanib, ishonchlilik darajasi $p<0,05$ deb qabul qilindi.

Natijalar. Tahlil natijalariga ko‘ra, tuxumdon o‘smalari orasida mutsinoz variantlar 308 (49,7%) holatda aniqlanib, eng yuqori ulushni tashkil etdi. Seroz o‘smalar 261 (42,1%) bemorda qayd etildi. Endometrioid shakllar 31 (5,0%) va aralash morfologik variantlar 20 (3,2%) holatda kuzatildi.Bemorlarning yosh tarkibi tahlil qilinganda, 377 (60,8%) nafar bemor reproduktiv yosh guruhiga mansubligi aniqlandi. Premenopauzal davrdagi ayollar 168 (27,1%) holatni tashkil etgan bo‘lsa, postmenopauzal davrda patologiya 75 (12,1%) nafar bemorda uchradi.Klinik simptomlar orasida qorinning pastki qismidagi og‘riq sindromi 412 (66,4%) bemorda kuzatildi. Hayz siklining buzilishi 286 (46,1%), dismenoreya 241 (38,9%), meteorizm va abdominal diskomfort 198 (31,9%), qorin hajmining kattalashuvi esa 174 (28,0%) holatda qayd etildi. Shu bilan birga, 149 (24,0%) bemorda kasallik simptomsiz kechib, profilaktik ko‘rik vaqtida aniqlangan.Ultratovush tekshiruvlarida ko‘p kamerali kistoz tuzilma 354 (57,1%) bemorda aniqlangan bo‘lsa, papilliar proliferatsiyalar 267 (43,0%) holatda qayd etildi. O‘smalarning ikki tomonlama joylashuvi 118 (19,0%) bemorda kuzatildi.Morfologik tekshiruvlarda epitelial proliferatsiya 620 (100%) holatda, yadro polimorfizmi 487 (78,5%), ko‘p qavatli epiteliy 451 (72,7%) va o‘rtacha darajadagi hujayraviy atipiya 396 (63,8%) bemorda aniqlandi. Stromal invaziyaning mavjud emasligi barcha kuzatuvlarda chegaraviy o‘smalarning asosiy diagnostik mezoni sifatida tasdiqlandi.Mukinoz variantlarda mukin sekretsiyasi va ko‘p kamerali kistoz tuzilma ustunlik qilgan bo‘lsa, seroz variantlarda papilliar proliferatsiyalar va epitelial giperplaziya ko‘proq kuzatildi. Reproduktiv yoshdagi bemorlarda kasallikning nisbatan erta aniqlanishi 268 (43,2%) holatda organ saqlovchi operatsiyalarni bajarish imkonini berdi.

Xulosa. Tuxumdon chegaraviy o‘smalari reproduktiv yoshdagi ayollarda ko‘p uchrab, ular orasida mukinoz va seroz variantlar ustunlik qiladi. Kasallik ko‘pincha kam simptomli kechgani sababli, erta diagnostika muhim ahamiyatga ega. Stromal invaziyaning yo‘qligi asosiy morfologik diagnostik mezon hisoblanadi. Muntazam ginekologik skrining va morfologik tekshiruvlar kasallikni erta aniqlash hamda reproduktiv funksiyani saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi.